

## KO'CHAT EKIB, BOG' YARATISH – EZGU AN'ANA



Bugungi kunda yashil olamni saqlash va ko'paytirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Yashil makon" umummilliy loyihasini puxta tayyorgarlik bilan boshlash tashabbusi ilgari surildi.

Qo'shtepa tumani aholisi ham mazkur umummilliy loyihasida faol qatnashmoqda.

Tumanda 2021 yil kuz mavsumida 239 ming dona, joriy yil bahor mavsumida 398 ming dona manzarali va mevali daraxtlar, shuningdek, buta ko'chatlarini ekish rejalashtirilgan. Bahor mavsumida tuman hududida 398 ming dona ko'chat ekildi.

Umummilliy loyihasida tumandagi mahallalarda, korxona va tashkilotlarda, o'quv muassasalarida uyushqoqlik bilan ko'chat ekish ishlari olib borilmoqda.



Shuningdek, yurtimiz bo'ylab o'tkazilayotgan "Onalar yashil makon uchun!" umummilliy aktsiyasida qo'shtepalik xotin-qizlar ham faol qatnashmoqdalar. Xotin-qizlar tomonidan joylarda mevali va manzarali daraxtlar, qalamchalar, shuningdek, turli gul ko'chatlari ekilmoqda.

### **Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**

[Facebook](#),

2022-04-07 18:32:00